




**QIMMATLI QOG'OZLAR
MARKAZIY DEPOZITARIYSINING
2024 YILNING 1 CHORAGI DAVOMIDAGI
FAOLIYATI NATIJALARI TO'G'RISIDAGI
HISOBOT**



2024 yilning 01 aprelidagi holatga ko'ra, Markaziy depozitariyda 629 aksiyadorlik jamiyatining 193 785,57 mlrd.so'm umumiy nominal qiymatga ega 18 008,76 mlrd.dona qimmatli qog'ozlar chiqarilishlari hisobi yuritilmoqda.

2024 yilning 1 choragi davomida qimmatli qog'ozlar chiqarilishlari hajmi 4 076,45 mlrd. so'mga, aksiyalarning soni esa 61,36 mlrd. donaga ko'paydi.

Markaziy depozitariyda shuningdek, 32 emitent tomonidan chiqarilgan 1 043,4 mlrd.so'm umumiy miqdorga ega 897,1 ming dona korporativ obligatsiyalar hisobi yuritilmoqda. Ularning 649,2 mlrd.so'm umumiy miqdorga ega 542,9 ming donasi 25 MChJ tomonidan chiqarilgan.



I. Davlat aktivlarini saqlash va hisobini yuritish

01.04.2024 yildagi holatga ko'ra, 241 ta aksiyadorlik jamiyatidagi davlat ulushi 159 853,9 mlrd.so'mni tashkil etdi (shu jumladan, Markaziy depozitariyda 218 aksiyadorlik jamiyatining 159 768,3 mlrd.so'm miqdordagi davlat ulushi hisobi yuritilmoqda). 2024 yilning 1 choragi davomida ustav fondida davlat ulushi mavjud bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari soni 2 taga, mavjud davlat ulushi hajmi esa 1 637,4 mlrd.so'mga ortdi.

Xo'jalik boshqaruvi organlarining 133 AJ ustav fondidagi ulushlari hajmi 3 853,0 mlrd.so'mni tashkil etdi. 2024 yilning 1 choragi davomida xo'jalik boshqaruvi organlari aktivlarining hajmi 4,2 mlrd.so'mga, AJlar soni esa 2 taga kamaydi.

II. Qimmatli qog'ozlar chiqarilishlariga xizmat ko'rsatish

Markaziy depozitariy O'zbekiston Respublikasi depozitar tizimida qimmatli qog'ozlarning yagona hisobi yuritilishini ta'minlaydi. 2024 yilning 1 choragi davomida Markaziy depozitariyga qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan qimmatli qog'ozlar chiqarilishlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha 32 ta hujjatlar to'plami kelib tushdi.

Hisobot davrida Markaziy depozitariyda jami 22 ta, shu jumladan 6 – birlamchi, 16 - qo'shimcha qimmatli qog'ozlar chiqarilishlari hisobga olindi.

Tugatilganligi munosabati bilan 2 emitentning qimmatli qog'ozlar chiqarilishlari, 5 emitent qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarining qismi, shuningdek 2 emitentning obligatsiya chiqarilishlari Markaziy depozitariy hisobidan chiqarildi. 2024 yilning 1 choragi davomida Markaziy depozitariy tomonidan aksiyadorlarning



umumiy yig'ilishlarini o'tkazish, shuningdek boshqa korporativ harakatlarni amalga oshirish uchun 786 ta reyestr shakllantirildi.

656 mahalliy emitentning 937 turdagi qimmatli qog'ozlariga xalqaro kodlar berildi.

III. Investitsiya fondlariga xizmat ko'rsatish

Markaziy depozitariy investitsiya fondlari tomonidan chiqarilgan va ularga tegishli bo'lgan qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlar hisobini yuritish bo'yicha mutlaq funksiyalarini bajargan holda, 2 ta XIF va 7 ta investitsiya fondlariga xizmat ko'rsatadi.

Hisobot sanasiga investitsiya fondlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar hajmi 2,32 mlrd.so'mni, investitsiya fondlari tomonidan sotib olingan qimmatli qog'ozlar hajmi esa 8,51 mlrd.so'mni tashkil etdi. Investitsiya fondlari aksiyadorlari soni 50 639 tani, shu jumladan 50 602 ta jismoniy va 37 tasi yuridik shaxslarni tashkil qildi.

IV. Investitsiya vositachilari bilan hamkorlik yuritish

Markaziy depozitariy, shuningdek 55 investitsiya vositachilari va ularning mijozlarining qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlari hisobini yuritadi.

01.04.2024 yil holatiga ko'ra, investitsiya vositachilarining depo hisobvaraqlarini ochgan mijozlari soni 705,18 mingni, shu jumladan 57,93 ming yuridik va 647,25 ming jismoniy shaxslarni tashkil etdi.


O'tgan yilning ayni shu davriga qiyoslaganda, depo hisobvaraqlari soni 2,14 foizga ortgan.

Investitsiya vositachilari tomonidan hisobi yuritiladigan qimmatli qog'ozlarning umumiy hajmi nominal qiymati bo'yicha 18 338,38 mlrd. so'm miqdordagi 7 244,70 mlrd. dona qimmatli qog'ozni tashkil etdi.

O'tgan yilning ayni shu davriga nisbatan investitsiya vositachilari tomonidan hisobi yuritiladigan qimmatli qog'ozlar hajmi 50,02 foizga ortdi.

Markaziy depozitariy tomonidan hisobot davrida 14 022,38 mlrd.so'm miqdordagi 28,99 mlrd. dona qimmatli qog'ozlar bo'yicha 45 ta birjadan tashqari bitimlar ro'yxatga olindi.





V. Deponentlarning yagona bazasi

Markaziy depozitariy tomonidan yuritiladigan deponentlarning yagona bazasi 01.04.2024 yil holatiga 816 087 ni, shu jumladan 752 975 jismoniy shaxsni va 63 112 yuridik shaxsni tashkil etdi. Deponentlarning yagona bazasida ro'yxatga olingan shaxslar soni o'tgan yilning ayni shu davriga nisbatan 39 620 taga ortdi.



VI. Biznes-jarayonlarni rivojlantirish

Markaziy depozitariy tomonidan "Kapital bozorini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-291-son qarorida belgilangan vazifalarni bajarish bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda.

Kapital bozori sohasida "Tartibga solish qumdoni" maxsus huquqiy rejimi joriy qilinganligi va uning doirasida asosiy tushunchalar, chet ellik ishtirokchilarning faoliyati va operatsiyalariga doir alohida qoidalar, qimmatli qog'ozlar egalari to'g'risidagi axborotlar maxfiylikini ta'minlash va ularning mulkiy huquqlarini himoya qilish mexanizmlari belgilanganligi munosabati bilan "Chet ellik nominal saqllovchiga xizmat ko'rsatishning vaqtinchalik tartibi", unga ilova qilinadigan arizalar shakllari, chet ellik nominal saqllovchining



anketasi, depo hisobvarag'i kartochkasi va chet ellik nominal saqlovchiga xizmat ko'rsatish shartnomasi loyihalari tayyorlandi va qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli organga taqdim etildi.

SWIFT kanali orqali xalqaro standartlarga muvofiq tuzilgan va standartlashtirilgan xabarlardan foydalangan holda qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar va korporativ harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini beradigan xorijiy kontragentlar va korrespondentlar bilan o'zaro hamkorlikni ta'minlash uchun Markaziy depozitariyning xorijiy kontragentlar va korrespondentlar bilan o'zaro hamkorlikni ta'minlash uchun KYC tartib-taomilini sozlash va o'tkazish bo'yicha ishlar yakunlandi.

Hisobot davrida Markaziy depozitariyda davlat qimmatli qog'ozlarining hisobini yuritilishini ta'minlash bo'yicha ishlar amalga oshirildi. Tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"ga muvofiq, davlat qimmatli qog'ozlari bilan operatsiyalarni amalga oshirish sxemalari tayyorlandi va kelishildi hamda "Markaziy depozitariy va O'zRVB o'rtasida axborot almashinuvi bo'yicha texnologik yo'riqnoma" tasdiqlash uchun taqdim etildi.

O'zRVB depozitar tizimida davlat qimmatli qog'ozlari bilan depozitar operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish uchun joriy yilning mart oyida O'zRVB bilan Markaziy depozitariy o'rtasida "Depozitar tizim dasturiy ta'minotidan foydalanish huquqini berish to'g'risidagi shartnoma" tuzildi.

Davlat qimmatli qog'ozlarining hisobini yuritish loyihasini uslubiy ta'minlash maqsadida "Davlat qimmatli qog'ozlarini depozitar hisobga olish va saqlash qoidalari" loyihasi tayyorlanib, O'zRVBga taqdim etildi.

Korporativ va davlat qimmatli qog'ozlarini saqlash, hisobga olish va hisob-kitoblarni amalga oshiradigan yagona depozitar dasturiy kompleksni yaratish uchun xorijiy va mahalliy vendorlar o'rtasida o'tkazilgan RFI tartib-taomillari, shuningdek IOSCO qimmatli qog'ozlar komissiyalari bo'yicha xalqaro tashkilot tamoyillariga mos keladigan qimmatli qog'ozlarni saqlash va hisobga olish tizimini amalga joriy etish takliflari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan tahliliy xat va taqdimot materiali tayyorlandi. 2024 yilning fevral oyida depozitar dasturiy ta'minotni ishlab chiqish masalasi Markaziy depozitariy Kuzatuv kengashining majlisida ko'rib chiqildi va qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli organga kelishish uchun taqdim etildi.

VII. Tavakkalchiliklarni boshqarish va komplayens-nazorat

Hisobot davrida xorijiy qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariylari tomonidan KYC va muvofiqlik tartib-qoidalari jarayonlarini o'tkazish tajribasi o'rganildi. O'rganish natijalariga ko'ra chet ellik nominal saqlovchilarning Anketasi ishlab chiqildi.

Shuningdek hisobot davrida Markaziy depozitariyda "Komplayens-nazorat" faoliyatini yo'lga qo'yish, huquqiy asosini yaratish maqsadida quyidagi ichki-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi:

- Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Siyosat;
- Korrupsiyaviy xavf-hatarlarni baholash uslubiyoti;
- Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom;
- Aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti;
- Xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnoma;
- Kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnoma;
- Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma;
- Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti;



- Korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizom;

- Xodimlarining korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha Reglamentlar.

Bundan tashqari, Markaziy depozitariyning rasmiy veb saytida (<https://uzcsd.uz/>) "Korrupsiyaga qarshi kurashish" sahifasi faoliyati yo'lga qo'yildi.

VIII. Me'yoriy-uslubiy bazani takomillashtirish

Hisobot davrida "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" AJning (ustav fondini oshirish bo'yicha) yangi tahrirdagi ustavi davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Markaziy depozitariyning Markaziy bankda vakillik hisobvarag'i ochilishi munosabati bilan, shuningdek, avtomatlashtirilgan bank tizimida operatsiyalarni amalga oshirishni uslubiy qo'llab-quvvatlash maqsadida "Qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariysida shaxsiy hisobvaraqlarni ochish, yuritish va yopish tartibi to'g'risidagi Qoidalar" va "Qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlarni (dividendlar, foizlarni) to'lash tartibi" loyihalari ishlab chiqildi va vakolatli organlarga taqdim etildi.

Korporativ qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilishning yangi hisob-kitob (kliring) modelini joriy etish yo'nalishida "Qimmatli qog'ozlar bozorida hisob-kliring palatalari to'g'risidagi Nizom" ga (2003 yil 29 apreldagi 196-son) o'zgartirish va qo'shimchalar loyihasi ishlab chiqildi.

Markaziy depozitariy tomonidan davlat qimmatli qog'ozlarining hisobini yuritish uchun O'zRVBning depozitar tizimidan foydalanish bo'yicha shartnoma loyihasi ishlab chiqildi va imzolandi.

Hisobot davrida Jamiyat korporativ boshqaruvi sohasida quyidagi hujjatlar o'zaro muvofiqlashtirildi:

- "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" AJda O'zbekiston Respublikasi rezidentlari yoki norezidentlari uchun ularning shaxsiy ishtirokisiz masofadan turib Depo hisobvaraqlarini ochish tartibi";

- O'zbekiston Respublikasi emitentlarining qimmatli qog'ozlariga xalqaro kodlar berish tartibi";

- Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan E-Vote xizmatidan foydalanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish qoidalarini";

- "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" AJning ichki nazorati to'g'risidagi yo'riqnoma".

Shuningdek, hisobot davrida Jamiyat Kuzatuv kengashining 5 ta majlisi bayonnomalari loyihasi tayyorlandi.

IX. Texnologik va dasturiy majmua

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024 yil 28 martdagi 38-11/449-son xabarnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 2 sentyabrdagi PQ-291-son "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq "Qimmatli qog'ozlarning Markaziy depozitariysi" aksiyadorlik jamiyatiga hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun Markaziy bankda vakillik hisobvarag'i ochilganligi, shuningdek, Qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariysining xos raqamlari ilk nobank tashkilot sifatida banklararo to'lov tizimida ishtirok etish uchun 2024 yilning 29 martidan "O'zbekiston Respublikasi banklari" hamda "Banklarning filiallari va bank xizmatlari ofislari" elektron ma'lumotnomalariga kiritilganligi ma'lum qilindi.

Hisobot davrida shuningdek, Markaziy depozitariy mutaxassislari tomonidan mijozlarning depo hisobvaraqlaridagi qoldiqlar to'g'risidagi ma'lumotlarni olish uchun mobil ilova bo'yicha API ishlab chiqildi. Bank telekommunikatsiya tarmog'ini (BTT) sozlash ishlari amalga oshirildi.



Joriy yilning 1 choragi davomida Markaziy depozitariy tomonidan pul mablag'lari bilan operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha dasturiy ta'minotni olishga doir tanlov o'tkazildi va avtomatlashtirilgan bank tizimi (ABT)ni xarid qilish bo'yicha tegishli shartnoma tuzildi. Ayni paytda ABT serverlarini o'rnatish va sozlash ishlari yuritilmoqda.

O'zRVB bilan davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha ma'lumotlarni uzatish bo'yicha texnik yo'riqnomalar ishlab chiqildi. Markaziy depozitariyning veb-saytlarini takomillashtirish va yangi funksiyalarni qo'shish bo'yicha ishlar olib borildi. Ichki ishlar vazirligi va Markaziy depozitariyning ma'lumotlarini o'zaro taqqoslashni yangilash moduli yaratildi.

Markaziy depozitariyning mobil ilovasi ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, hisobot davrida Markaziy depozitariyning IT-siyosati ishlab chiqildi.

X. Faoliyatni texnik va axborot qo'llab-quvvatlash

Markaziy depozitariy bazasi ma'lumotlarining zaxira nusxalarini yaratish maqsadida SUBD INFORMIKSni hamda pochta tizimini ma'muriy boshqarish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Axborotni tezkor qayta ishlash bo'yicha sozlash ishlari amalga oshirildi.

Hisobot davrida Markaziy depozitariyning texnik bazasini xatlov ishlari amalga oshirildi.

Yagona dasturiy-texnik kompleksda ma'lumotlar almashish bo'yicha ish yuritish tashqi kanallar orqali tashkil qilindi. Undan tashqari, YaDTKning barqaror ishlashini ta'minlash uchun himoyalangan VPN aloqa kanali yordamida ish olib borildi.

Axborot xavfsizligini ta'minlash maqsadida zamonaviy talablarga javob beradigan Kaspersky Total Security antivirus dasturiy ta'minotining litsenziyasini yangilash rejalashtirilmoqda.

XI. Kadrlar siyosati

Markaziy depozitariyning kadrlar siyosati yuqori malakali mutaxassislarni maksimal darajada qo'llab-quvvatlash, iqtidorli va istiqbolli kadrlar bilan ishlash, mehnatni rag'batlantirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan.

Shu munosabat bilan Markaziy depozitariyda xodimlarning malakasini oshirishga, zamonaviy texnologiyalar va xorijiy tillarni o'qitishga qaratilgan tadbirlar muntazam o'tkazib kelinmoqda. Dastavval qimmatli qog'ozlar bozori, korporativ boshqaruv, axborot texnologiyalari va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga muvofiq hisobotlar tayyorlash kabi yo'nalishlarda xodimlarning bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish va yangilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayni paytda Markaziy depozitariy xodimlarining 16 nafarida qimmatli qog'ozlar bozorining 1 toifa mutaxassisi malaka guvohnomasi, 10 nafarida esa qimmatli qog'ozlar bozorining 2 toifa mutaxassisi malaka guvohnomasi mavjud. Ayni paytda Markaziy depozitariyning to'rt nafar xodimi Toshkent shahridagi oliy ta'lim muassasalarining sirtqi bo'limlarida tahsil olishmoqda.

XII. Xalqaro hamkorlik

Joriy yilning yanvar oyida Markaziy depozitariyda "Citybank" kastodian-banki vakillari bilan xalqaro hamkorlik, vakillik munosabatlarini yo'lga qo'yish, xususan, depozitar tilxatlarni chiqarish masalalariga bag'ishlangan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda Markaziy depozitariyning joriy faoliyati va rivojlanish strategiyasi, xususan, korporativ va davlat qimmatli qog'ozlari hisobini markazlashtirish, chet ellik nominal saqllovchilar uchun hisobvaraqlar ochish, SWIFT platformasi orqali test xabarlarini almashish imkoniyatlari masalalari muhokama qilindi.